

«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI
UMUMIY YIG‘ILISHINING BAYONNOMASIDAN
KO‘CHIRMA

2025-yil 17-iyun

№ 4

Toshkent shahri

Soat: 11-00

Shaxrisabz ko‘chasi, 2-uy

...

...

...

KUN TARTIBI

1. Bankning sanoq komissiyasi a‘zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bank Boshqaruvining 2024-yil faoliyati yakunlari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash.
4. Bankning 2024-moliyaviy yil yakuni bo‘yicha yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisobotini tasdiqlash.
5. Bankning 2024-yil faoliyati yakuni bo‘yicha sof foydasini taqsimlash.
6. Bank Kuzatuv kengashining 2024-yil faoliyati yakunlari bo‘yicha hisobotini eshitish.
7. Bank Kuzatuv kengashi a‘zolariga to‘lanadigan haq miqdorini belgilash.
8. Bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlarni ma‘qullash.
9. Bankning nomini, rekvizitlarini o‘zgartirish.
10. Bankning Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali yangi tahrirda tasdiqlash.
11. Bankning 2025-2027 yillarga mo‘jallangan rivojlanish strategiyasini tasdiqlash.

Kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha:

1. Bankning sanoq komissiyasi a‘zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **birinchi masala** bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi **qaror qiladi:**

1. Bankning sanoq komissiyasi a‘zolari soni uch kishidan iborat bo‘lsin va quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

- Mamaraimov Muzrob Zuxriddinovich - "Smart bank" aksiyadorlik jamiyati Chakana biznes boshqarmasi boshlig'i, komissiya raisi;
- Napasov Bunyodbek Rashidbek o'g'li - "Smart bank" aksiyadorlik jamiyati HR boshqarmasi boshlig'i v.b., komissiya a'zosi;
- Salomov Sardor Fozil o'g'li - "Smart bank" aksiyadorlik jamiyati Korporativ biznes boshqarmasi bosh menejeri, komissiya a'zosi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **ikkinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlansin va u quyidagi tartibda tashkil etilsin:

- ma'ruzalar uchun 20 daqiqagacha vaqt ajratilishi;
- muhokama va muzokaralar, shuningdek ovoz berish uchun 10 daqiqagacha vaqt ajratilishi.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha:

3. Bank Boshqaruvining 2024-yil faoliyati yakunlari bo'yicha hisobotini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **uchinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

3.1. Bank Boshqaruvining 2024-yil faoliyati yakunlari bo'yicha hisoboti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.2. Bank Boshqaruvi (A.To'rayev) zimmasiga bankning biznes-rejasi ijrosini ta'minlash, bank daromadliligi va rentabelligini oshirish vazifasi yuklatilsin.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha:

4. Bankning 2024-moliyaviy yil yakuni bo'yicha yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisobotini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **to'rtinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi

qaror qiladi:

4. Bankning 2024-moliyaviy yil yakuni bo'yicha yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisoboti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha:

5. Bankning 2024-yil faoliyati yakuni bo'yicha sof foydasini taqsimlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **beshinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

5. Bankning 2024-yil faoliyati yakuni bo'yicha sof foydasi quyidagicha taqsimlansin:

sof foydaning 87 663 843,55 (Sakson yetti million olti yuz oltmish uch ming sakkiz yuz qirq uch, 55) so'mi zaxira fondiga ajratma qilinsin;

sof foydaning qolgan 1 550 000 000 (Bir milliard besh yuz ellik million) so'mi taqsimlanmagan foydada qoldirilsin.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha:

6. Bank Kuzatuv kengashining 2024-yil faoliyati yakunlari bo'yicha hisobotini eshitish.

...

...

...

Kun tartibidagi **oltinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

6.1. Bank Kuzatuv kengashining 2024-yil faoliyati yakunlari bo'yicha hisoboti 3-ilovaga muvofiq ma'qullansin va tasdiqlansin.

6.2. Bank Kuzatuv kengashi (Sh. Tashpo'lov) zimmasiga bankning aktivlari, majburiyatlari va biznes reja ijrosini tahlil qilgan holda bank Boshqaruvi faoliyatini muntazam kuzatib borish, hisobotlarini eshitish hamda ushbu to'g'risida tegishli qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

7. Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq miqdorini belgilash.

...

...

...

Kun tartibidagi **ettinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

7. Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda har oyda to'lanadigan haq miqdori 4-ilovaga muvofiq belgilansin.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha:

8. Bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni ma'qullash.

...

...

...

Kun tartibidagi **sakkizinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

8. Bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar ro'yxati 5-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

Kun tartibidagi to'qqizinchi masala bo'yicha:

9. Bankning nomini, rekvizitlarini o'zgartirish.

...

...

...

Kun tartibidagi **to'qqizinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

9.1. Bankning nomini, rekvizitlarini quyidagicha o'zgartirishga rozilik berilsin:

bank nomi: "Open bank" aksiyadorlik jamiyati;

bankning joylashgan yeri (pochta manzil): 100000, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shaxrisabz ko'chasi, 2-uy;

elektron pochta manzil: office@openbank.uz;

veb manzil: www.openbank.uz.

9.2. Bank Boshqaruvi (A.To'rayev) zimmasiga bankning nomi, rekvizitlari o'zgarishi munosabati bilan o'rnatilgan tartibda ommaviy e'lon berilishi hamda ushbu o'zgarishlar bilan bog'liq bankning barcha jarayonlariga va hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi ta'minlansin.

Kun tartibidagi o'ninchi masala bo'yicha:

10. Bankning Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali yangi

tahrirda tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **o'ninchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

10.1. Bankning Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali yangi tahrirda 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10.2. Bankning yangi tahrirdagi Ustavi o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilsin.

Kun tartibidagi o'n birinchi masala bo'yicha:

11. Bankning 2025-2027 yillarga mo'jallangan rivojlanish strategiyasini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **o'n birinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

11.1. Bankning 2025-2027 yillarga mo'jallangan rivojlanish strategiyasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11.2. Bank Boshqaruvi bankning 2025-2027 yillarga mo'jallangan rivojlanish belgilangan maqsad va vazifalarga erishish yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

...

...

...

Yig'ilish raisi

imzo

Sh. Tashpo'lov

Ko'chirma asliga to'g'ri:

